

This is not registered version of TotalDocConverter
Yomg'irali bo'yinini yangib, shon hamozim mavzida o'qish uchun darvoza sari yurganida, ko'chadan kimdir uni shang'illab chaqirdi. U labbaylanib o'tirmasdan, oxirgi uch qadamini tezlata borib, darvozani ochdi. Qarasa, o'ng chirog'i singan mashinaga o'xshab, Shirmon birko'z turibdi.

Chaqirgan odami shu zahotiyoy qarshisida hozir bo'lishini kutmagan Shirmon birko'z mushtlangan xontaxtadagi tuzdondek sapchib tushdi.

- Keling, Shirmon aka, - deb manglayimi tirishtirdi Yomg'irali. - Machitga shoshib turuvdim. Bizga xizmat bormidi?

Shirmon birko'z sog' "chirog'ini tergovchinikidek charaqlatib, Yomg'iralining nigohiga qadadi.

- Mayli, shoshayotgan bo'lsang, gapni kaltaroq qilay,- deya mushuklanib yalandi u. - Hm-mB^T! Urayim novcha kalxo'zimizdag'i aptagarajga mudirligida sen unga shopirlilik qilgansan. To'g'rimi?

Tasdiq javobini olgach, Shirmon birko'z mog'oryoqa kitelining cho'ntagini titkiladi, chap qo'lida muqovasi bujmaygan daftarcha, o'ng qo'lida dumi chaynalgan qalam paydo bo'ldi. Shundan so'ng, Urayim novcha mudirlikda kimlarga nimalarni sotib tirikchilik qilgani to'g'risida u-bu narsalar bilib olmoqchi ekanligini, hozir borini shovullatib to'kmasa, Yomg'iralining o'zini ham tovoqdoshlikda ayblab, sharmandasini chiqarishini aytди:

Yomg'irali pinagini buzmay, miyig'ida kinoyalı kulimsiradi:

- Bunaqa do'qlar bilan chumchuqni qo'rqiting. Qishloqda osilmaganningiz men qoluvdim.

- Qo'rhma, senga astoydil osilmochi emasman, - muruvvat ko'rsatgan bo'ldi Shirmon birko'z. - Urayim qilgan qing'ir ishlardan, hech bo'lmasa, bir juftini menga o'rmalatgin-u, yaxshilik bilan tarqalaylik. Uqdingmi?

Yomg'irali Shirmon birko'zga chimrilib boqdi:

- Kalxo'z yo'qolib ketganiga ancha bo'ldi. Urayim aka hozir pensiyada. Sizga nima qildi u?

- Malumot berishdan oldin, aybini bilvolging kelayotgan bo'lsa, xo'p, aytay, - tulkilandi Shirmon birko'z.- Urayim o'zi birinchi bo'lib menga yopishdi. Bo'lmasa, uni paypaslashdan bo'lak ishim yo'qmi?

Dushmanlikka sabab bo'lgan voqeani eshitib, Yomg'iralining qornida kulgi chuldiradi. Shirmon birko'z ko'chadan ketib borayotsa, Urayim novcha tomorqasiga suv ochib turgan ekan. Bunisi o'zini pastroq olib, "assalomu alaykum desa, unisi noxushgina "val.. deb, xiyol bosh qimirlatib qo'yibdi.

- Amaldorligida undan "Moskvichimga bitta kardanniy val so'rab borsam, ombordan topib berib, pulini bug'oltirga to'lab qo'yarsiz, deganidi, - negadir g'ijinib xotirladi Shirmon birko'z. - Ana to'layman, mana to'layman deb yurib, paqqos esdan chiqib ketganakan. Mana, oxiri "val-l deb, o'sha eski temirni shama qildi-ya. Voy, o'g'rivachcha-ey! Shuncha o'margan narsangdan bittasi tekkinga ketsa, o'lib qolmassan!

Yomg'irali bo'yinini qashib turib, Urayim novchaning juda halol odamligini urg'ulagach, u "val deganda o'sha kardan valini xayoliga ham keltirmay, "vaalaykumni qisqartib aytgan bo'lishi mumkinligini taxminladi. Keyin: "Shunchalik o'pkalagan ekansiz, buni o'ziga tanalab qo'ya qolmabsiz-da, aka, deb qo'shimcha qildi.

- Nima, meni indamay ketadiganlardan deb o'ylayapsanmi? - cho'chchangladi Shirmon birko'z. - O'rnidayoq tuzladim uni.

Joyingda qimirlamay tur, dedim. Hozir boshqatdan salom beraman, odamday alik olishni o'rgan, dedim. Uqdingmi?

- Uqdim, Shirmon aka, uqdim. Keyin nima bo'ldi?

- Keyin, ikki qadam orqaga qaytib, yonidan yana salom berib o'tdim. Baribir, o'sha turish - o'sha turish. Betimga qaramasdan, "valay^B deb qo'ydi, xolos. Shunda aniq bildimki, menga ichida kiri bor.

Yomg'irali Shirmon birko'zga hafsalasiz tikilib: "Bunaqa tor bo'lmanq-da, aka. Keyingisida "valay deb aniqroq aytibdi-ku, deya dakki bergen bo'ldi. Buni eshitib, Shirmon birko'z jahllanganicha lunjini titratdi:

- Bu kallami, nog'orami? Keyingi gapi oldingisidanam battarligini payqamadingmi? Urayim "valay degan gapni "valyayga o'xshatib aytди. "Valyay bu- o'rischada "qorangni o'chir degani. He, til bilmagan qoloq!

So'fining azon chaqirayotgani eshitildi. Yomg'irali: "Bo'pti, men boray bo'lmasa, deya suhabatni chala qoldirib, machit tomonga yurdi. To'rt-besh odim tashlab ulgur-masidan, ortdan: "Vey, bola! Bu turishda o'zinggayam yomon bo'ladi-ya! - degan vag'illoq tovush taraldi. "Xudoning uyiga borayotgan Yomg'irali qandaydir notavon bandaning dag'dag'asiga parvo qilmay, yo'lidan jimgina ketaverdi.

2005